
“TASHABBUSLI BYUDJET”: IJTIMOY SOHALAR ZAMONAVIY JIHOZLAR BILAN TA’MINLANMOQDA

Ikki yildan buyon yurtimizda “Tashabbusli byudjet” doirasida ajratilayotgan mablag’lar hududlarda yashovchi aholining yillar davomida yig’ilib qolgan eng dolzarb muammolariga yechim bo’lyapti.

Toshloq tumanida "Tashabbusli byudjet" jarayonining 2-bosqichi davomida fuqarolar tomonidan 153 ta takliflar ovoz berish jarayoniga o’tkazilgan. Yakuniy natijalariga ko’ra eng ko’p ovoz olgan 6 ta loyiha g’olib deb topilgan.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan 2 mingtadan ortiq ovoz to’plagan qo’shimcha 4 ta loyiha g’olib deb topildi.

“Tashabbusli byudjet” jarayonining 2-bosqichi natijalari bo’yicha jami 8 mlrd. 400 mln so’mlik 10 ta takliflar g’olib deb topilgan bo’lib, ajratilgan mablag’lar evaziga qurilish-ta’mirlash ishlari boshlab yuborilgan.

Xususan, eng ko’p ovoz to’plagan tuman tibbiyot birlashmasiga 950 million so’mlik raqamli rentgen apparati va zamonaviy UZI diagnostika apparati keltirildi. Endilikda qabul diagnostika bo’limidagi zamonaviy apparatlar aholiga sifatli tibbiy xizmatlar ko’rsatadi.

Bundan tashqari, 12-umumta’lim maktabiga o’quvchilari uchun 800 million so’mlik zamonaviy maktab jihozlari ham yetkazib berildi.

-“Tashabbusli byudjet”ning ikkinchi bosqichi jarayonida faol qatnashib, 2250 ta ovoz to’plab o’quv jihozlari uchun mablag’ yutib oldik,-deydi tumandagi 12-umumta’lim maktabi direktori Tolibjon Rustamov. - Ayni kunlarda sinf xonalar, faollar zali hamda oshxonalar to’liq yangi jihozlar bilan ta’minlanmoqda. Bu esa kelgusida maktabimizda ta’lim sifatini yanada oshirishda o’zining ijobiy samarasini ko’rsatadi.

2022-11-26 09:11:21